

O'ZBEKISTONNING BIRLASHGAN MILLATLAR TASHKILOTI BILAN HAMKORLIK TARIXI

Jumanov Jahongir Sulaymon o'g'li,

O'zbekiston Milliy universiteti,

Davlat va fuqarolik jamiyati institutlari boshqaruvi

mutaxassislikligi bo'yicha 1- kurs magistri

Abstract: Ma'lumki, zamonaviy xalqaro munosabatlar ularda ko'p tomonlama diplomatiyaning roli ortib borayotganligi bilan ham xarakterlanadi. Ko'p tomonlama diplomatiya xalqaro hayotning Birlashgan millatlar tashkiloti (BMT) faoliyati bilan bog'liq ko'plab muhim jabhalarini qamrab oladi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va gumanitar xalqaro muammolarni hal etishda xalqaro hamkorlikni amalga oshirish maqsadini ko'zlaydi. Bunday hamkorlik xalqaro tinchlik va xavfsizlikni saqlashdagina barcha davlatlarning majburiyati hisoblanad.[1] O'tgan qisqa davrda O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining belgilovchi asosiy yo'nalishlaridan biri - hamkorlikni mustahkamlash maqsadida BMT bilan sherikligimiz sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarildi.

Kalit so'zlar: Birlashgan Millatlar Tashkiloti, preventiv diplomatiya, taraqqiyot dasturi, "Yashil orol dengizi" tashabbusi.

Birlashgan millatlar tashkiloti - yer yuzida tinchlikni mustahkamlash xavfsizlikni ta'minlash davlatlarning o'zaro hamkorligini rivojlantirish maqsadida tashkil etilgan xalqaro tashkilot hisoblanadi. Bugungi kunda Birlashgan Millatlar Tashkilotiga yer yuzida 193 dan ortiq mamlakatlar a'zo hisoblanadi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti dunyodagi yagona, universal xalqaro tuzilma hisoblanadi. O'zbekiston 1992yilning 2martida tashkilotning teng huquqli a'zosiga aylandi. Aytish joizki, keyingi yillarda mamlakatimizning BMT bilan munosabatlari butunlay yangi bosqichga ko'tarildi. Bunda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilayotgan ochiq va manfaatli tashqi siyosat muhim ahamiyat kasb etyapti. So'nggi yillarda davlatimizning Birlashgan Millatlar Tashkiloti bilan hamkorligi yanada mustahkamlanib, kundan-kunga faollashib bormoqda. Darhaqiqat, bugungi kunda O'zbekiston va BMT o'rtasidagi munosabatlar yangi ma'no-mazmun kasb etib, rivojlanib bormoqda. Mamlakatimiz 1992yil 2martda tuzilmaga a'zo bo'lgan bo'lsa, 1993yilda Toshkentda BMTning vakolatxonasi o'z faoliyatini boshladi. Shundan buyon respublikamiz BMT va uning ixtisoslashgan muassasalari bilan samarali hamda o'zaro manfaatli hamkorlikni amalga oshirib kelmoqda. Respublikamizning BMT doirasidagi ko'p tomonlama hamkorligining ustuvor yo'nalishlari sifatida xalqaro va mintaqaviy xavfsizlikka bo'lgan tahdidlar, shuningdek, terrorizm va diniy ekstremizmga qarshi kurashish, qo'shni Afg'onistonda tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash hamda uning iqtisodiyotini tiklashga ko'maklashish, qurolsizlanish va ommaviy qirg'in qurollarini tarqatmaslik, ekologik, jumladan, Orol dengizining qurishi bilan bog'liq muammolarni hal etish, Bugun Orolbo'yida nafaqat ekologik, balki dunyo miqyosida og'ir olib kelishi mumkin bulgan murakkab ijtimoiy-iqtisodiy.[2] va demografik muammolar paydo bo'lganligi ularni oldini olish bo'yicha ko'plab takliflar berib kelmoqda.

Ta'kidlash lozimki, O'zbekiston va BMT o'rtasidagi qariyb 30 yillik hamkorlik aloqalari tarixida so'nggi to'rt yil alohida o'rin tutadi. Chunki ushbu davrda mazkur tashkilot bilan o'zaro munosabatlarimiz sifat va miqyos jihatidan mutlaqo yangi pog'onaga ko'tarilishi ta'minlandi. O'zbekiston BMT Bosh Assambleyasi va uning ixtisoslashgan muassasalari

ishida birmuncha faol ishtirok eta boshladi. 2017yilning iyun oyida BMT Bosh kotibi Antoniu Guterrish mamlakatimizga rasmiy tashrif buyurib, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev bilan uchrashdi. Shundan so'ng har ikkala tomon o'rtasidagi siyosiy muloqot muntazam tus olib, O'zbekiston rahbari BMT Bosh kotibi bilan 2017yilning sentyabr oyida Nyu-York shahrida BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyada va 2019 yilning aprel oyida Xitoyning Pekin shahrida bo'lib o'tgan "Bir makon, bir yo'l" xalqaro forumida ishtiroki doirasida ham uchrashuvlar o'tkazib, o'zaro hamkorlikning holati va istiqbollari o'ld keng miqyosli masalalarni muhokama qildi. Ikki tomonlama munosabatlarni yanada mustahkamlash maqsadida 2020 yilning iyun oyida BMT va uning ixtisoslashgan muassasalari bilan hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha "Yo'l xaritasi" qabul qilindi va uning ijrosi izchil ta'minlanmoqda. Mazkur hujjat O'zbekiston tashabbuslarini ilgari surish, mamlakatimiz va uning vakillarini BMTning saylov organlarida a'zolicini ta'minlash, siyosiy-diplomatik tadbirlarni va respublikamizning xalqaro maydondagi imijini oshirishga qaratilgan keng miqyosli xalqaro faoliyatni nazarda tutadi.

BMT O'zbekistonni jamiyatning turli sohalarida islohotlarni og'ishmay amalga oshirayotgan va Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish borasida Markaziy Osiyo mintaqasidagi eng faol a'zo davlat sifatida tan olmoqda. BMT Bosh kotibi A.Guterrish bugungi kunda sayyoramizning turli mintaqalarida millatlararo kelishmovchilik va bir-birini tushunmaslik oqibatida har xil nizolar kelib chiqayotgani, balki dunyo xalqlari birdamligi, xavfsizligiga tahdid solayotganini bir necha bor ta'kidlagan. U ana shunday murakkab sharoitda O'zbekistonda 130 dan ortiq millat va elat vakillarining ahil-inoq, hamjihat hayot kechirayotgani, bunda mahalla instituti muhim o'rin tutayotgani tahsinga sazovor ekanini mamnuniyat bilan qayd etgan.

Tashkilot Bosh kotibining ta'kidlashicha, O'zbekistondagi tinchlik-osoyishtalik, barqarorlik va bag'rikenglik muhiti BMTning asosiy maqsad va tamoyillariga to'la mos keladi.

O'zbekiston o'z ovozi va mavqeiga ega bo'lgan a'zo sifatida BMT oldiga muhim va dolzarb masalalarni qo'yib kelmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017yil sentyabr oyida BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqi mamlakatimiz va BMT hamkorligining yangi bosqichini boshlab berdi. BMT Bosh Assambleyasining mazkur sessiyasida davlatimiz rahbari tomonidan qator xalqaro va mintaqaviy ahamiyatga ega bo'lgan muhim tashabbuslar ilgari surildi. Bular Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining maslahat uchrashuvlarini o'tkazish va shu orqali mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlash, Orol dengizi qurishi bilan bog'liq muammolarni hal etish, Afg'oniston muammosi bo'yicha Toshkent anjumanini o'tkazish orqali tomonlar o'rtasidagi muloqotga ko'maklashish va Afg'onistondagi tinchlik jarayonini qo'llab-quvvatlash, ma'rifat va diniy bag'rikenglik haqidagi BMT Bosh Assambleyasi rezolyutsiyasini hamda Yoshlar huquqlari haqidagi xalqaro konvensiyani ishlab chiqish va qabul qilish kabilardir. Bundan tashqari, so'nggi yillarda O'zbekiston tashabbusi bilan BMT Bosh Assambleyasida qator xalqaro va mintaqaviy xarakterga ega bo'lgan maxsus rezolyutsiyalar qabul qilindi va bu boradagi ishlar izchil davom ettirilmoqda. Ushbu rezolyutsiyaning qabul qilinishi Prezidentimiz tomonidan diniy ekstremizm va radikalizmga qarshi kurash borasida ilgari surilgan "Jaholatga qarshi ma'rifat" tamoyilining amaliy ifodasi va bu boradagi O'zbekistonning sa'y-harakatlarini dunyo miqyosida keng qo'llab-quvvatlanishi demakdir. Shuningdek, Afg'oniston muammosini hal etish bo'yicha, xabaringiz bor, 2018yilning 27-martida O'zbekiston tashabbusi bilan xalqaro konferensiya tashkil etilib, "Toshkent deklaratsiyasi" qabul qilindi.

2018-yilda Prezidentimiz tashabbusi bilan hamda BMT Bosh kotibi shafeligida Orolbo'yi mintaqasi uchun Inson xavfsizligi bo'yicha ko'p tomonlama sheriklik asosida Trast jamg'armasi tashkil etildi. Jamg'armaning asosiy maqsadi — aholining turmush faoliyati bilan bog'liq bo'lgan tibbiy, iqtisodiy rivojlanish, ekologik vaziyat, ijtimoiy himoya va boshqa shu

kabi sohalar bilan bog'liq bo'lgan Orolbo'yining zaruriy muammolarini hal qilishda muvofiqlashtirilgan yondashuvni ta'minlash. Hozirgi kunga qadar Trast jamg'armasi faoliyati uchun donor mamlakatlarning jami 26,1 million AQSH dollariga teng mablag' jalb qilingan. Jamg'arma doirasida doimiy ravishda loyiha takliflari portfeli ishlab chiqilmoqda va yangilanmokda. Jumladan, Orolbo'yi mintaqasi ekologik holatini tiklash va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi bo'yicha loyihalarning yagona platformasi yaratildi. 47 ta yo'nalish bo'yicha loyihalar ro'yxati shakllantirildi. Hozirgi vaqtda BMT Taraqqiyot dasturi Orolbo'yi hududida qishloq joylaridagi biznes loyihalarni qo'llab-quvvatlamokda. Qator vazirliklar va idoralar bilan imzolangan o'zaro anglashuv memorandumini doirasida 2020-yil "Yashil Orol dengizi" tashabbusiga start berildi. Ushbu sa'y-harakatlar natijasida 100 gektar quruq dengiz tubida saksovul ko'chatlari ekiladi.

Prezidentimiz BMT Bosh Assambleyasining 72 va 75-sessiyalarida so'zlagan nutqlarida yoshlar masalalariga alohida e'tibor qaratdi. Jumladan, davlatimiz rahbari 72-sessiyada "yoshlarning ongu tafakkurini ma'rifat asosida shakllantirish va tarbiyalash eng muhim vazifa..." ekanligini alohida ta'kidlab, "sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo'lib kamolga yetishi bilan bog'liq"ligini aytib o'tdi. Shu munosabat bilan, "globallashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari jadal rivojlanib borayotgan bugungi sharoitda yoshlarga oid siyosatni shakllantirish va amalga oshirishga qaratilgan umumlashtirilgan xalqaro huquqiy hujjat — BMTning Yoshlar huquqlari to'g'risidagi xalqaro konvensiyasini ishlab chiqish"ni ilgari surdi.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda sog'lom dunyoqarash va mustaqil tafakkurga ega bo'lgan yoshlarni voyaga etkazish masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Xususan, buyuk allomalarimizning boy ma'naviy merosini o'rganish, yoshlarga etkazish, milliy an'ana va qadriyatlarimizni asrab-avaylashga, ma'naviyat va ma'rifat maskanlari, kutubxona, axborot-resurs markazlari va ta'lim dargohlarini zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan ta'minlashga katta ahamiyat qaratildi va davom etmoqda[3]. Biz yoshlarga doir davlat siyosatini hech og'ishmasdan, qat'iyat bilan davom ettiramiz. Nafaqat davom ettiramiz, balki bu siyosatni eng ustuvor vazifamiz sifatida bugun zamon talab qilayotgan yuksak darajaga ko'taramiz. Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuk-sak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz. [4]

BMT Bosh Assambleyasining 75-sessiyasida esa, Prezidentimiz "mamlakatimiz aholisining yarmidan ko'pini yoshlar tashkil etishini, respublikamizda har bir yigit-qizning jamiyatda munosib o'rin egallashi va o'z salohiyatini namoyon etishi uchun ulkan ishlar amalga oshirilayotgani va O'zbekistonda Yoshlar parlamentlari, Yoshlar ishlari agentligi faoliyat ko'rsatayotgani"ni alohida ta'kidlab o'tdi. Ushbu tashabbusni amalga oshirish yo'lida BMT bilan hamkorlikda "Yoshlar huquqlari to'g'risidagi xalqaro konvensiya" loyihasi ishlab chiqildi. Hozirgi vaqtda Yurtboshimizning Yoshlar huquqlari to'g'risidagi konvensiyani ishlab chiqish va qabul qilish borasidagi tashabbuslarini amaliyotga tatbiq etish bo'yicha qizg'in ishlar olib borilmoqda. Jumladan, mamlakatimizning BMT huzuridagi vakolatxonasi tomonidan mazkur hujjatni ishlab chiqish va qabul qilish bo'yicha "Do'stlar guruhi"ni shakllantirish ishlari izchil davom etyapti. Konvensiyaning mohiyati, maqsadi va uni qabul qilish masalalari bo'yicha BMTga a'zo mamlakatlar bilan muzokaralar olib borilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qarang Бирлашкан миллатлар ташкилотининг низоми/Инсон ҳуқуқлари бўйича халқаро ташкилотлар/Масъул маҳаррир А.Х.Саидов.Т. 2004.-Б.3.
2. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka Tahdid, barqarorlik kafolatlari. T. 6. – T: O'zbekiston, 1998. – 34-36 b.

3. Тухтабоева Д.Э. Влияние глобализации на духовность молодежи // ВЕСТНИК НАУКИ И ОБРАЗОВАНИЯ. 2021. № 14 (117). Часть 1. Б.-39.
4. Mirziyoev SH.M. Erkin va Faravon Demokratik davlatni birgalikda barpo etamiz . – Toshkent: O'zbekiston, 2016. – 14.b.
5. Саипова К. Д. Основные причины создания Наркомнаца РСФСР //Вестник развития науки и образования. – 2013. – №. 1. – С. 19-22.
6. Саипова К. Д. Работа национальных бюро Турккомнаца среди европейской части национальных меньшинств //Научная жизнь. – 2011. – №. 1. – С. 102-106.
7. Муртазаева Р., Адилов А., Саипова К. ЎРТА ОСИЁДА ТОЛЕРАНТЛИК ТАМОЙИЛИНИНГ ШАКЛЛАНИШИ ВА РИВОЖЛАНИШИ (ҚАДИМГИ ВА ИЛК ЎРТА АСРЛАР МИСОЛИДА) //ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ. – 2020. – Т. 3. – №. 1.